

“NAZMI MUXTASAR AL-VIQOYA” ASARINING TOSHBOSMA NUSXALARI VA NASHR VARIANTIDAGI FARQLI JIHATLAR

Zoyirova Hafiza Baxtiyor qizi

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada “Nazmi Muxtasar al-Viqoya” asarining Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi fondlarida saqlanayotgan toshbosma nusxalariga bog'liq ma'lumotlar hamda ular va nashr variantidagi farqli jihatlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: nazm, fiqh, toshbosma, Muxtasar al-Viqoya, Hamid Sulaymonov fondi, poygir, shaxsiy fondlar, madrasa, nasta'liq.

“Muxtasar al-Viqoya” nusxalari ustida olib borilgan izlanishlar natijasida mazkur asarning Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Turkmaniston, Tojikiston kutubxonalarida, O'zbekiston musulmonlar idorasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi, Toshkent islom universiteti, Alisher Navoiy nomli Davlat muzeyi, Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi “Maxdum Vosiliy nomidagi ma'naviy meros markazi” xazinalarida saqlanayotgan jami bir necha ming qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjudligi aniqlandi⁶². “Muxtasar al-Viqoya” asarining arab tilidagi matni mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Toshkent shahrida nashr etilgan⁶³.

Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi fondlarida asarning mamlakatimizda yozilgan ikki yuzdan ortiq qo'lyozmalari mavjud. Mazkur asarning bizgacha ko'plab nusxalarda yetib kelishi qadimdan unga ehtiyojning yuqori ekanligini bildiradi. Asar matnlari asosan omma, shaxsiy fondlar, madrasa, maktab o'quvchilari uchun ko'plab nusxalarda ko'chirilgan va keng tarqalgan.

Uzoq yillar madrasa va turli ilm dargohlarida darslik sifatida o'qitilgan “Muxtasar al-Viqoya” asarining she'riy yo'l orqali o'quvchilarga havola etilishi diyorimizda unga qadimdan qiziqish katta bo'lgani va ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, “Muxtasar al-Viqoya” asari ko'p asrlar davomida islom fiqhini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asar hozirda ham o'z ilmiy ahamiyatini aslo yo'qotgan emas. Asar matni hamda uning sharhi, hoshiyalari keyingi yozilgan asarlar uchun manba vazifasini o'tab kelayotgani ham fikrimizni isbotlaydi.

Yurtimizdagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi, asosiy fondida “Muxtasar al-Viqoya”ning 132 ta qo'lyozma, 92 ta toshbosma nusxalari saqlanmoqda. “Muxtasar ul-Viqoya” asarining arab tilidagi matni mustaqilligimizning ilk yillaridayoq Toshkent shahrida nashr etilgan.

⁶² Неъматилла Насруллаев. “Назми Мухтасар ал-Викоя”. – Т.: “HILOL-NASHR” нашриёти, 2016. – Б. 22.

⁶³ Мухтасар ал-Викоя. – Т.: Мовароуннахр, 1991. – 182 б.

“Nazmi muxtasari viqoya” asarida muallifning oʻz xalqiga mehr-muhabbati yaqqol aks etib turadi. Buni biz masalalarni bayon etishdagi kuyunchaklik hissidan bevosita sezishimiz mumkin. Bundan koʻrinadiki, sheʼriy uslubni tanlagan nozim bir vaqtning oʻzida matnni tarjima qilib, masala yechimini oʻsha davr nuqtai nazaridan baholashga ham harakat qilgan. Albatta, bu kabi jihatlar oʻquvchini sergaklikka chaqirish bilan birga oʻzi uchun tegishli xulosalar chiqarib olishiga koʻmak beradi⁶⁴.

Ubaydulloh ibn Masʼudning “Muxtasar al-Viqoya” asarini boshqa nozimlar ham nazmga solishgan. Bu “Nazmi muxtasari viqoya” asari ustida ilmiy izlanish olib borish jarayonida Rahimxoʻja Shoshiyning manzumasidan boshqa manzumalar ham aniqlangani fikrimizning dalilidir. Ular Sharqshunoslik qoʻlyozmalar markazi, asosiy hamda Hamid Sulaymonov fondi qoʻlyozmalarida saqlanmoqda:

Nazmi Muxtasar al-Viqoya. (Tuhfa). Asosiy fond qoʻlyozmalari katalogida INV № 7211 raqami ostida saqlanadi. Bu asar Buxoro amiri Subhonqulixon (1680-1702) asrida yashab oʻtgan shoir-Jomiy tomonidan hijriy 1061 yildan soʻng yozilgan. Koʻchirilish tarixi: sana: 1224. Manzuma fors tilida. Hamma varaqlarda poygirlar bor. Matn qora siyoh bilan nastaʼliq xatida yozilgan. Sarlavhalar uchun qizil siyoh ishlatilgan.

Har sahifada 19 yoʻl. Kerakli joylarida, sahifa chetiga sharhlar yozilgan. Dastlabki, qalin kartonli, bezakli muqova. Qoʻlyozmaning avvalgi sahifalari biroz uringan. 137 sahifadan iborat. Oʻlchami 14x23,5 sm ni tashkil etadi.

Asar basmala, naʼt bilan boshlanib, xunasa masalalariga tegishli fasl bilan tugagan.

Nazmi Muxtasar (Tuhfa). Asosiy fond qoʻlyozma, INV № 8885-II. Yozuvchisi-Jomiy.(Subhonqulixon asri shoirlaridan). Kitob ustiga och yashil rangli qattiq muqova qilingan. 898 hijriy yilda yozilgan, biroq yozilgan yeri, koʻchirish yili nomaʼlum. 116 sahifadan iborat, mazkur raqam ostida saqlanayotgan qoʻlyozma kitobning ikkinchi qismi, yaʼni 40-156 betlarda ushbu manzuma yozilgan. Nazmi Muxtasar 22 yoʻlda, fors tilida, nastaʼliq yozuvida yozilgan.

Nazmi Muxtasar al-Viqoya. Hamid Sulaymonov fondi qoʻlyozmalari, INV№486-I.

Fors tilida yozilgan. Kitob ustiga och jigarrang qattiq muqova qilingan. Koʻchirilish tarixi: nomaʼlum. Kotib: nomaʼlum. Hamma varaqlarda poygirlar bor. Sargʻish, yupqa qogʻoz. Matn qora siyoh bilan nastaʼliq xatida yozilgan. Sarlavhalar uchun och kulrang siyoh ishlatilgan. Har sahifada 11 yoʻl. Dastlabki, qalin kartonli, bezakli muqova. Qoʻlyozma ancha uringan. Varaqlar soni 1a-9a. Qoʻlyozma yaxshi saqlanmagan, siyohlari boʻyalgan. Mazkur kitob toʻliq emas, unda tahorat, tayammum hukmlari, namoz hukmlari, jumʼa namozi ahkomlari yoritilgan xolos.

Nazmi Muxtasari Viqoya. Hamid Sulaymonov fondi qoʻlyozmalari, INV №910. Yozuvchisi nomaʼlum. 208 v. Fors tilida yozilgan.

Muxtasar al-Viqoya nazm. Asosiy fond qoʻlyozma. INV№ 11589. Yozuvchisi Abdulhaq. Asar fors tilida. Koʻchirilish tarixi: sana: nomaʼlum. Kotib: nomaʼlum.

⁶⁴ Неъматилла Насруллаев. “Назми Мухтасар ал-Викоя”. – Т.: “HILOL-NASHR” нашриёти, 2016. – Б. 19.

Hamma varaqlarda poygirlar bor. Matn qora siyoh bilan nasta'liq xatida yozilgan. Har sahifada 17 yo'l. Qalin kartonli, bezakli muqova. Varaqlar soni-155. O'lchami 14,5x25,5 sm.

Muxtasar al-Viqoya manzum. Asosiy fond qo'lyozma. INV №11755-I.

Oddiy nusxalardan biri. Nusxaning boshlanishi va oxiri odatdagi matnga ega. Ko'chirilish tarixi: noma'lum. Kotib: noma'lum.

Hamma varaqlarda poygirlar bor. Oqish, yupqa qog'oz. Matn qora siyoh bilan oddiy nasta'liq xatida yozilgan. Sarlavhalar, she'riy parchalarning nomlari uchun qizil siyoh ishlatilgan. Har sahifada 15 yo'l. Dastlabki, qalin kartonli, bezakli muqova. Qo'lyozma yaxshi saqlangan. Varaqlar soni-3 ta. Yozuvchisi, yozilgan yeri, yili, ko'chiruvchisi, ko'chirish yillari noma'lum. Fors tilida, nasta'liq yozuvida yozilgan. Mazkur raqamli kitobning birinchi qismida 3 varaqda "Nazmi muxtasari viqoya" manzumasidan parcha keltirilgan bo'lib, tugallanmagan. Bu tugallanmagan parchalarda taloq kitobi, kinoya talog'i va unga tegishli ba'zi masalalar nazm shaklida yoritilgan. Bu kitobning keyingi qismlarida arab tili harflari maxrajlar, farz bayoni, muharramotlar, namozning farz, vojib, mustahab amallari bayoni, harflarning sifatlariga tegishli ma'lumotlar joy olgan.

VI-qismida (INV № 11755- VI) Muxtasar viqoyaning nazmi keltirilgan. Bu qismidagi manzuma ham 15 qatorda, fors tilida, nasta'liq yozuvida yozilgan, 93 varaqni tashkil etadi. Oxiri tugallanmagan. Mavzular boshidan ya'ni, basmala, na't, tahorat kitobi mavzusi bilan boshlangan. Oxiri "Bay'da tavliya va murobaha bay'i bayoni" bilan tugagan.

Bu kabi matnlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, kitobat tarixi va madaniyati bo'yicha tadqiq qilish natijasida yurtimiz tarixiga oid ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Mazkur qo'lyozmalarni to'liq o'rganish va o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil etish manbashunos va tarixchi mutaxassislarning galdagi vazifalaridandir.